

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN STRATEGIK HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Baxtiyorova Aziza Ixtiyor qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti., 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22857040>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik hamkorlikning siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, transport-logistika, suv-energetika hamda madaniy-gumanitar jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari, mintaqaviy maslahat uchrashuvlari mexanizmining shakllanishi, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi va transchegaraviy masalalarni muzokaralar orqali hal etish amaliyoti o'rganilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo'nalishi nafaqat geografik yaqinlik, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar, transport koridorlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashning strategik omiliga aylanganini ko'rsatadi. 2017–2024-yillarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining sezilarli oshishi, qo'shma korxonalar sonining ko'payishi va siyosiy muloqotning institutsionallashuvi mazkur yo'nalishning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. 2024-yilda Astana shahrida qabul qilingan “Markaziy Osiyo – 2040” konsepsiyasi mintaqaviy hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari belgilashda muhim bosqich bo'ldi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, strategik hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika, suv-energetika, “Markaziy Osiyo – 2040”

Kirish

Markaziy Osiyo O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim geografik va strategik yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan umumiy chegaralarga ega bo'lgan yagona Markaziy Osiyo davlatidir. Shu sababli mintaqadagi siyosiy barqarorlik, xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish, transport kommunikatsiyalari, suv va energetika masalalari bevosita O'zbekistonning milliy manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston tashqi siyosatining rasmiy konseptual asoslarida ham Markaziy Osiyo mintaqasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, transport-tranzit infratuzilmasini kengaytirish, suv resurslaridan oqilona

foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash asosiy vazifalar sifatida ko'rsatilgan [1].

2016-yildan keyingi davrda O'zbekistonning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatida amaliy va pragmatik yondashuv kuchaydi. Tadqiqotchilar mazkur jarayonni O'zbekiston tashqi siyosatidagi muhim burilish sifatida baholaydilar. T. Dadabaev O'zbekistonning 2016-yildan keyingi tashqi siyosatini mintaqaviy aloqalarni qayta faollashtirish va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yangi asosda shakllantirish jarayoni sifatida tahlil qiladi [2, 162–175-b.]. A. Kazantsev va L. Gusev esa yangi tashqi siyosiy yondashuvning

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy jarayonlarga ta'sirini alohida ta'kidlaydi [3, 292–303-b.].

Mazkur o'zgarishlar natijasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida oliy darajadagi siyosiy muloqot muntazam tus oldi. Davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqaviy muammolarni muhokama qilishning muhim siyosiy platformasiga aylandi. 2019-yilgi Toshkent maslahat uchrashuvida savdo, iqtisodiyot, transport, investitsiyalar, qishloq xo'jaligi, energetika, suv resurslari, ekologiya, turizm, fan va madaniyat kabi yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [4].

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bilan strategik hamkorlikning ahamiyatini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiy-genetik yondashuv, statistik tahlil va siyosiy-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining rasmiy ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tashqi savdo bo'yicha ma'lumotlari, Prezident va Tashqi ishlar vazirligi materiallari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy maqolalar tashkil etdi. Xususan, O'zbekistonning 2024-yil yakunlari bo'yicha tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi, mintaqaviy hamkorlikka oid davlat bayonotlari va ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi. 2024-yilda O'zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 23,1 mlrd dollarni tashkil etgan, uning tarkibida Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston muhim o'rin egallagan [5].

Tadqiqotda faktik ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish maqsadida bir xil ko'rsatkichlar imkon qadar rasmiy va ilmiy manbalar orqali o'zaro solishtirildi.

Natijalar

Markaziy Osiyoning O'zbekiston tashqi siyosatidagi strategik o'rni

Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo O'zbekiston tashqi siyosatida uch asosiy sababga ko'ra strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Birinchidan, mintaqaviy xavfsizlik O'zbekistonning milliy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq. Terrorizm,

ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, noqonuniy qurol va narkotik moddalar savdosi, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo davlatlari uchun umumiy xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi. Shu sababli xavfsizlik sohasida axborot almashinuvi, chegaralarni muvofiqlashtirish va xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston rasmiy tashqi siyosatida Markaziy Osiyoni tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish hududiga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Ikkinchidan, mintaq O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlari uchun katta bozor hisoblanadi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2017-yildagi 3,2 mlrd dollardan 2024-yilda 6,9 mlrd dollarga yetgan. Shu davrda Qozog'iston bilan savdo hajmi qariyb 4 mlrd dollar, Qirg'iziston bilan qariyb 700 mln dollar, Tojikiston bilan 570 mln dollardan ortiq, Turkmaniston bilan esa 1,15 mlrd dollarni tashkil etgan [6].

Uchinchidan, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari ham strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoning geografik jihatdan quruqlik ichkarisida joylashgani tashqi bozorlarga chiqishda transport koridorlarining ahamiyatini oshiradi. O'zbekiston uchun Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston yo'nalishlari orqali turli transport tarmoqlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish uchun muhimdir.

Qozog'iston bilan strategik hamkorlik

Qozog'iston O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2024-yilda O'zbekistonning Qozog'iston bilan savdo aylanmasi qariyb 4 mlrd dollarni tashkil etgan [6]. 2025-yil yakunlariga ko'ra esa ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 4,97

mlrd dollarga yetib, bir yil ichida 11,4 foizga oshgan. O'zbekiston eksporti 1,55 mlrd dollarni, importi esa 3,4 mlrd dollarni tashkil etgan [7].

Ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik faqat savdo bilan cheklanmaydi. Sanoat kooperatsiyasi, transport, energetika, qishloq xo'jaligi, suv resurslari, chegaraoldi hududlar hamkorligi va madaniy-gumanitar aloqalar ham rivojlanmoqda.

Qozog'iston bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi O'zbekistonning shimoliy yo'nalishdagi transport va savdo imkoniyatlarini kuchaytiradi. Ikki davlatning iqtisodiy tuzilmalari bir-birini ma'lum darajada to'ldirishi sanoat kooperatsiyasi va qo'shma ishlab chiqarish loyihalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Qirg'iziston bilan hamkorlikning yangi bosqichi

O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Diplomatik munosabatlar 1993-yil 16-fevralda o'rnatilgan bo'lib, bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi huquqiy shartnomaviy baza 248 dan ortiq hujjatni qamrab oladi [8].

Qirg'iziston bilan hamkorlikning alohida xususiyati — chegaraoldi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro bog'liqligidir. Savdo, transport, turizm, qishloq xo'jaligi, suv-energetika va chegaraoldi aloqalarining rivojlanishi ikki mamlakat aholisi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Qirg'iziston bilan transport aloqalarini rivojlantirishning eng muhim loyihalaridan biri Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'lidir. Ushbu loyiha O'zbekistonning Xitoy va boshqa Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlarini diversifikatsiya qilish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur transport yo'nalishi Markaziy Osiyoning transport bog'liqligini kuchaytirish va mintaqani xalqaro logistika tarmoqlariga yanada chuqurroq integratsiya qilish imkonini beradi [9, 487–496-b.].

Tojikiston bilan strategik yaqinlashuv

O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari ham 2017-yildan boshlab yangi bosqichga ko'tarildi. Siyosiy muloqotning faollashuvi ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport aloqalarining tiklanishiga xizmat qildi.

2024-yilda O'zbekistonning Tojikiston bilan savdo aylanmasi 570 mln dollardan oshgan [6]. Bu ko'rsatkich

ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarining amaliy mazmuni kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Tojikiston bilan hamkorlikda transport va energetika masalalari alohida o'rin tutadi. Chegaradosh hududlarning iqtisodiy aloqalari, avtomobil va temir yo'l qatnovlarining rivojlanishi, savdo punktlari faoliyatining yaxshilanishi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni oshiradi.

Suv va energetika masalalarida esa o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda muloqot olib borish mintaqaviy barqarorlik uchun muhimdir. Bu boradagi hamkorlikning siyosiy ahamiyati shundaki, suv resurslaridan foydalanish masalasining konstruktiv muzokaralar orqali muvofiqlashtirilishi mintaqada ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Turkmaniston bilan strategik hamkorlik

Turkmaniston O'zbekistonning g'arbiy yo'nalishdagi muhim qo'shnisi va transport-energetika hamkori hisoblanadi. 2024-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1,14 mlrd dollarni tashkil etgan va bir yil davomida 5,5 foizga oshgan [10].

2025-yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida erkin savdo rejimini joriy etishga qaratilgan kelishuvlar kuchga kirishi o'zaro savdo uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ayrim tovarlar bo'yicha bojxona tariflarining bekor qilinishi, savdo tartib-taomillarining soddalashtirilishi va o'zaro savdo cheklovlarining kamaytirilishi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkin [10].

Turkmaniston bilan hamkorlik O'zbekistonning Kaspiy dengizi va undan keyingi transport yo'nalishlariga chiqish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ham muhim. Shu sababli ikki tomonlama munosabatlar nafaqat qo'shnihilik, balki O'zbekistonning xalqaro transport va logistika strategiyasining bir qismi sifatida qaralishi mumkin.

Tahlil va muhokama

O'zbekistonning Markaziy Osiyo siyosatidagi eng muhim o'zgarishlardan biri — ikki tomonlama diplomatiyadan ko'p tomonlama mintaqaviy hamkorlikka bosqichma-bosqich o'tishdir.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari ushbu jarayonning asosiy mexanizmlaridan biriga aylandi. 2024-yilgi Astana uchrashuvida "Markaziy Osiyo – 2040" konsepsiyasi, 2025–2027-yillarga mo'ljallangan mintaqaviy hamkorlik yo'l xaritasi hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasi qabul qilindi [11].

Bu jarayonni mintaqaviy institutsionalizatsiyaning kuchayishi sifatida baholash mumkin. G. Mirzayev O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyoga ustuvorlik berilishi xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirganini ta'kidlaydi [12, 32–41-b.]. Shu bilan birga, mintaqaviy hamkorlikni to'liq iqtisodiy integratsiya darajasiga olib chiqish uchun hali ham bojxona, texnik reglamentlar, transport tariflari, chegara infratuzilmasi va boshqa masalalarda muvofiqlashtirish talab etiladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar bu boradagi ijobiy tendensiyanı tasdiqlaydi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi 2017–2024-yillarda ikki martadan ko'proq oshgan [6]. Shu bilan birga, 2024-yilda mintaqamamlakatlarining o'zaro savdosi taxminan 11 mlrd dollarga yetgan, O'zbekistonning mintaqadavlatlari bilan savdosi esa 7,2 mlrd dollarnı tashkil etganligı rasmiy manbalarda qayd etilgan [13].

Bunday dinamika O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy aloqalarnı rivojlantirishdan manfaatdorligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo bozori geografik yaqinligı, transport xarajatlarining nisbatan pastligı va tarixiy-iqtisodiy aloqalarning mavjudligı sababli muhim eksport yo'nalishidir.

Biroq strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish bir qator muammolarnı ham hisobga olishni talab qiladi. Mintaqadavlatlarining iqtisodiy tuzilmalari, tashqi savdo yo'nalishlari va geosiyosiy manfaatlari bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, transport infratuzilmasining yetarli darajada integratsiyalashmaganligı, ayrim chegara punktlaridagi infratuzilma cheklavlari va suv-energetika

masalalarining murakkabligı mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda muayyan to'siqlar yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning tashqi siyosatidagi strategik yondashuv "integratsiya uchun integratsiya" emas, balki aniq iqtisodiy, xavfsizlik va ijtimoiy manfaatlarnı ta'minlashga qaratilgan pragmatik hamkorlik modeliga yaqinlashmoqda. Tashqi siyosatning ushbu xususiyati ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [14, 491–501-b.; 15, 106–111-b.].

Strategik hamkorlikning yana bir muhim jihati — O'zbekistonning xalqaro muzokaralardagi pozitsiyasini kuchaytirishidir. Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy manfaatlari bo'yicha yaqinlashuvi mintaqaning xalqaro tashkilotlardagi siyosiy salohiyatini oshiradi. 2024-yilda "C5+1" formatida AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida iqtisodiy hamkorlik, barqaror rivojlanish, transport-logistika aloqalari va mintaqaviy tinchlik masalalari muhokama qilingan [16].

Demak, Markaziy Osiyo doirasidagi hamkorlik faqat mintaqamichidagi munosabatlar bilan cheklanmaydi. U "Markaziy Osiyo +" formatlari orqali mintaqaning AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fors ko'rfazi davlatlari va boshqa xalqaro hamkorlar bilan aloqalarini ham yangi mazmun bilan boyitmoqda.

Transport masalasi ham strategik hamkorlikning alohida yo'nalishidir. ADB tadqiqotlari Markaziy Osiyoda transport va tranzit savdosini rivojlantirish uchun raqamli bojxona tizimlari, chegara punktlarini modernizatsiya qilish va transport jarayonlarini muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi [17]. Ushbu yo'nalish O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki mamlakatning

dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati mavjud emas.

Ekologik muammolar ham strategik hamkorlikning uzoq muddatli yo'nalishlaridan biridir. Orol dengizi fojiasi, transchegaraviy suv resurslari, iqlim o'zgarishi va cho'llanish kabi muammolar bir davlat tomonidan alohida hal etilishi qiyin. ADBning 2024-yilgi mintaqaviy iqlim tashabbuslari haqidagi hisobotida Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishiga moslashish uchun siyosiy muvofiqlashtirish, mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqot va texnologiyalar almashinuvi muhimligi ta'kidlangan [18].

Shunday qilib, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik hamkorligi bir vaqtning o'zida tashqi siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik siyosatining kesishgan nuqtasida shakllanmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik hamkorlikning fundamental ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Mintaqa O'zbekiston uchun geografik jihatdan yaqin hudud bo'lish bilan birga, mamlakat milliy xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyoti, transport-logistika imkoniyatlari va xalqaro siyosiy manfaatlari bilan bevosita bog'liq.

2017-yildan keyingi davrda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan munosabatlarida siyosiy muloqotning faollashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, chegara va transport masalalarini muzokaralar orqali hal etish, suv-energetika sohasidagi muloqot va madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishi kuzatildi.

Statistik ma'lumotlar ushbu siyosatning iqtisodiy natijalarini ham tasdiqlaydi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2017-yildagi 3,2 mlrd dollardan 2024-yilda 6,9 mlrd dollarga yetgan. 2025-yilda Qozog'iston bilan savdo aylanmasining 4,97 mlrd dollarga yetishi ham ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi [6; 7].

"Markaziy Osiyo – 2040" konsepsiyasining qabul qilinishi mintaqaviy hamkorlikni uzoq muddatli strategik rejalashtirish bosqichiga olib chiqdi. Kelgusida mintaqaviy hamkorlik samaradorligi transport koridorlarini uyg'unlashtirish, savdo to'siqlarini

kamaytirish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, suv va energetika sohasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va raqamli iqtisodiyot sohasidagi aloqalarni kengaytirishga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo bilan strategik hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining alohida bir yo'nalishi emas, balki mamlakatning uzoq muddatli milliy taraqqiyot strategiyasining muhim tashqi siyosiy tayanchiga aylanmoqda. Mintaqada o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va amaliy manfaatlarga asoslangan munosabatlarning mustahkamlanishi O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, butun Markaziy Osiyoning xalqaro siyosiy va iqtisodiy subyekt sifatidagi mavqegini kuchaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. Foreign Policy of the Republic of Uzbekistan. — Toshkent, elektron nashr, 2024. — 1–6-b.

Dadabaev T. Uzbekistan as Central Asian game changer? Uzbekistan's foreign policy construction in the post-Karimov era. — Asian Journal of Comparative Politics, 2019. — Vol. 4, No. 2. — 162–175-b.

Kazantsev A.A., Gusev L.Y. Reforms in Uzbekistan's Foreign Policy: Major Achievements and Development Scenarios. — Vestnik RUDN. International Relations, 2018. — Vol. 18, No. 2. — 292–303-b.

United Nations. Joint Statement of the Consultative Meeting of the Heads of States of Central Asia. — New York, 2019. — 1–8-b.

Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Socio-economic Situation of the Republic of Uzbekistan: Foreign Economic Activity, January–December 2024. — Toshkent, 2025. — 1–8-b.

Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. The First Meeting

of the Council of Ministers of Trade and Investment of Central Asian Countries Held in Tashkent. — Toshkent, 2025. — 1–3-b.

Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. Trade, Economic, and Investment Cooperation between Uzbekistan and Kazakhstan is Strengthening. — Toshkent, 2026. — 1–3-b.

Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Kyrgyz Republic. Political Relations between Uzbekistan and Kyrgyzstan. — Bishkek, 2025. — 1–4-b.

Khujanova M.F., Jalilova M. Central Asia in the Foreign Policy of the New Uzbekistan. — Oriental Journal of History, Politics and Law, 2025. — Vol. 5, No. 5. — 487–496-b.

Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. A Free Trade Agreement Has Been Established between Uzbekistan and Turkmenistan. — Toshkent, 2025. — 1–4-b.

Lempp J., Mayer S. (eds.). Central Asia in a Multipolar World: Internal Change, External Actors, Regional Cooperation. — Springer, 2024. — 1–18-b.

Mirzayev G.R. Central Asia – Main Foreign Policy Priorities of Uzbekistan: A New Approach and Practical Actions. — Journal of History, 2021. — Vol. 103, No. 4. — 32–41-b.

Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. Central Asia on the Verge of a New Era. — Toshkent, 2025. — 1–5-b.

Kazimir L.A. Uzbekistan's Foreign Policy Development: The New Benchmarks. — RUDN Journal of Political Science, 2024. — Vol. 26, No. 3. — 491–501-b.

Khakimov F., Tulyakov E. Friendly Cooperation with Central Asian States – A Priority Direction of Uzbekistan's Foreign Policy. — 2020. — 106–111-b.

Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. C5+1 Meeting of the Foreign Ministers of Central Asia and the United States. — New York, 2024. — 1–3-b.

Asian Development Bank. Transit Trade Facilitation in Azerbaijan, Kazakhstan, and Uzbekistan. — Manila, 2024. — 1–64-b.

Asian Development Bank. Regional Action on Climate Change: A Vision for the Central Asia Regional

Economic Cooperation Program. — Manila, 2024. — 1–58-b.

Zhiltsov S.S. Uzbekistan's Foreign Policy Sets Objectives for the Development of Central Asia. — Central Asia and the Caucasus, 2018. — Vol. 19, No. 4. — 60–71-b.

Kamilov Sh. Priority Directions of Uzbekistan's Foreign Policy: Changes and Conceptual Foundations. — Oriental Journal of History, Politics and Law, 2023. — 426–431-b.